

**“Kapitalbank” ATB
Korporativ boshqaruvini
baholash natijalari
to’g’risida hisobot**

“Grand Thornton” MCHJ AJ
O’zbekiston Respublikasi,
100128, Toshkent, Abay ko’chasi, 1”A”
Tel.: +998(71) 244-47-45/46
Faks: +998(71) 244-47-43

“Kapitalbank” ATB Aksiyadorlari va Rahbariyatiga

Biz “Kapitalbank” Aksiyadorlik-Tijorat Bankining (bundan buyon matnda - “Kapitalbank” ATB) 2016 yil uchun korporativ boshqaruvini baholashni o’tkazdik. Baholash natijalari bo’yicha Korporativ boshqaruv kodeksi tamoyillari va tavsiyalariga rioya qilinishi bo’yicha hisobot tuzildi.

Bank rahbariyati Aksiyadorlar umumiyligi yig’ilishining 2016 yil 30 iyunda 3/2016-raqami bilan tasdiqlangan bankning “Korporativ boshqaruv kodeksi”ga rioya qilinishi bo’yicha hisobot tayyorlash va taqdim үйлиш uchun javobgar hisoblanadi.

Bizning majburiyatimiz, biz tomonimizdan o’tkazilgan obzorli tekshiruv asosida ushbu bankning korporativ boshqaruvini baholash bo’yicha xulosa qilishdan iborat.

Obzorli tekshiruv bo’yicha ishlar hajmi

Biz baholashni O’zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo’mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan “Korporati boshqaruvi tizimini baholashni o’tkazish uchun savolnoma”ga binoan o’tkazdik. Hisobot, asosan, bank faoliyati sohasining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, Korporativ boshqaruv kodeksini tayyorlash va joriy etish uchun javobgar bo’lgan shaxslarni so’rov qilishdan iborat.

Baholash

Bizning hisobotimizga asoslanib, yuqorida ko’rsatib o’tilgan “Korporati boshqaruvi tizimini baholashni o’tkazish uchun savolnoma”ga binoan korporativ boshqaruv tizimini baholash javoblari natijalari bo’yicha, 2016 yil yakunlari bo’yicha “Kapitalbank” ATB faoliyati samaradorligini baholash natijasi **“qoniqarli”** deb baholandi.

**2017 yil 02 fevral
Toshkent sh., O’zbekiston**

“Kapitalbank” ATB bo'yicha
korporativ boshqaruvni baholash bo'yicha yig`ma jadval

№	Yo'naliш	Savol-lar soni	To'planadigan ballar		Haqiqiy bahо
			minimum	maksimum	
1.	Korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorlash muolajalarini baholash	13	-135	135	90
2.	Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishini baholash	37	-360	360	100
3.	Bank tashkiliy tuzilmasining muvofiqligini baholash	3	-30	30	15
4.	Ko'rik tanloving baholanishi	5	-45	45	-40
5.	CHop etishlarga o'tishni MHXB va xalqaro audit standartlariga binoan baholash	3	-50	50	50
6.	Zamonaviy boshqaruv tizimlarining joriy etilishini baholash	5	-55	55	-50
7.	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320	-32
8.	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150	-35
9.	Boshqa yo'naliшlarni baholash	25	-205	55	55
	JAMI:	100	-1200	1200	153